

TALABALARNI ALGORITMLAR FANI BO'YICHA ILMIY TADQIQOT ISHLARIGA JALB ETISHNING AYRIM TOMONLARI

BOTIROV D.B. JDPI dotsent
MAJIDOV J. M. JDPI katta o'qituvchi
Jm1974@umail.uz , +998915998974

O'zbekiston respublikamizda mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan demolratik huquqiy davlat qurulishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda.[1]

Pedagogika institutlarida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish muhim faktorlardab biridir – bu ularning o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish muammolari ustida ish ilib borishga o'rgatishdir. Buning uchun esa pedagogika institutlarida kopgina imkoniyatlar mavjud. Mana shunday imkoniyatlardan biri yuqori bosqish talabalarining pedagogik amaliyotlarini o'tkazish davrida ilmiy pedagogik muammolar ustida ish olib borishdir.[2]

Ilmiy tushunchalarni shkllantirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli uni tizim deb qarashga zarurat tug'iladi.

Biz quyida Jizzax Davlat pedagogika instituti Informatika va txnologik ta'lim fakulteti informatika o'qitish metodikasi yo'nalishi talabalari tomonidan pedagogik amaliyot davrida olib borilgan ilmiy pedagogik izlanishlarning biri haqida fikr yuritimiz. Dastlab talabalarni innavatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularning innavatsion madaniyatini rivojlantirishda talabalarda quyidagi elementlarning mavjudligi muhim hisoblanadi:

- talabalarning yangiliklarni qabul qilishga tavsiflovchi motivlar, qarashlarning mavjudligi, ularning innavatsion uo'nalganlikning shakllanganligi;
- talabalarda kreativlik va individuallik, faoliyatli o'zini anglash kabi ijodiy qobilyatlarning mavjudligi;
- talabalarda pedagogik madaniyatning rivojlanganligi;

- talabalarda an'anaviy topshiriqlarni variativ uslubda amalga oshirishni taminlaydigan texnologik komponentning shakllanganligi;
- talabalarda innavatsion jarayonida o'zi va mazkur jarayundagi o'rni haqida adekvat tasavvur hosil qilishga ko'maklashuvchi refleksiyaning mavjudligi;

Ilmiy tushunchalarni talabalarda shakllantirish o'qituvchi va talabaning bir vaqtdagi faoliyatini, o'zaro didaktik hamkorligini ko'zda tutadi. Ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish ikki xil darajada amalga oshiriladi: bilimlar darajasida, konikmalar darajasida.

Talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish tizimida pedagogika oliy o'quv yurtlari oldida turgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadi ikkita masalani yechish orqali amalga oshiriladi:

- 1). talabalarni ilmiy tushunchalar bilan qurollantirish;
- 2). bo'lajak o'qituvchi mutaxassislarining o'zlarini bo'lajak o'quvchilarda tushunchalarni shakllantira bilishga tayyorlash.[3]

Har qanda o'qitish jarayonini samarali boshqarish va uni kutilgan natijaga erishish pedagoglarga sir emas. Samarali boshqarish faoliyati o'z chiga quyidagilarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish; tashkil etish; rag'batlantirish; joriy nazorat; myvofiqlashtirish va uning natijalarini tahlil etish kabi elemenlardir. Shuning uchun ham o'qituvchining talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish bo'yicha asosiy faoliyati loyhalash, tashkilotchilik, rag'batlantirish, nazorat va joy-joyiga qo'yish kabi bosqichlardan iborat.

Ilmiy pedagogik izlanishlarni tashkil etish bosqichlari quyidagilarda iborat deb hisobladik:

- tajribaga ishtirok etuvchi talabalarni guruhlarga birlashtirib ularning qiladigan tadqiqot ishlarini oldindan belgilab berish;
- o'tkazilayotgan tajriba ishlarini tashkil etish uslubini ishlab chiqish;
- tajriba asosida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash mukammal formasini ishlab chiqish;
- talabalarni olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining maqsadi va vazifasi, kutilayotga natijalar, tajriba o'tkazish joyi, vaqti va muddati bilan tanishtirish;

- umum ta'lim maktablarida o'tkazilgan tajribalar asosida olingan ma'lumotlarni sistemalashtirish;
- tajriba ma'lumotlarini sonli, sifatli tahlil etish va tahlil natijalaridan xulosalar chiqarish hamda ularni nazariy jihatdan asoslash;
- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va ulardan ma'ruzalar tayyorlash, ilmiy metodik maqolalar yozish va pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar yozishda foydalanish.

Yuqorida qayd etganlardan "O'quvchilarning algoritmlar predmetiga munosabatini o'rganish" masalasini hal etishda foydalaniladi. Buning uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqilgan.

Olingan natijalardan foydalanib kompyuter yordamida olingan natijalar asosida, oliy o'quv yutrida algoritmlar fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar.

1. Daniyarov B. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayoni sifat va samaradorligini oshirishning muhim omili. "Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogic va axborot kommunikatsiya teznologiyalarini joriy etish: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2014 yil, 3-11 betlar.
2. Yuysupov R.M. va boshqalar. Pedagogika oliygohi yuqori kurs talabalarini informatika va hisoblash texnikasida o'qitish uslubi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishning ayrim yo'llari. A.Qodiriy tavalludining 100 yilligiga va institutning 20-yilligiga bag'ishlangan professor o'qituvchilarnin XX-ilmiy-amaliy konferensiyasining doklad tezislari. Jizzax. 1994 yil, 126 bet.
3. Rayemov M. Talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish tizimi. Xalq ta'limi jurnali. 6-son, 1999 yil, 75-78 betlar.

